

MASOFAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDA INNOVATION TA'LIM

Ilmurodova Dilobar Hamzayevna

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti Qarshi filiali o'qituvchisi*

ANNOTATSIYA: *Ushbu ilmiy maqolada Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimida innovatsion muhitning yaratilishi barobarida ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatini, innovatsion ta'limning rivojlanishi, tendentsiyalar va istiqbollari, innovatsion ta'limni rivojlantirishda innovatsion faoliyatni amalga oshirish masalalari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, innovatsion muhit, innovatsion faoliyat, innovatsion ta'lim, innovatsion tendentsiyalar, ilm-fan, ta'lim tizimi.*

KIRISH. Ta'lim muassasasining innovatsion faoliyatini joriy etishda innovatsiyalarni yaratish va amalga oshirish jarayonlari ham muayyan sikllardan iboratdir. Ushbu nuqtai nazardan olib qaralsa, innovatsion jarayon vaqt o'lchamlarida izchil davom etuvchi, ahamiyati jihatidan bir xil bo'lgan turli xil bosqichlarda funktsional jihatdan alohida mazmun kasb etib bir-biridan farqlanadigan faoliyat yig'indisidir.

Innovatsiya uchun asos bo'lib xizmat kiluvchi fundamental g'oya va bilimlarning, ularni amalda ko'llash quyidagi natijalarga olib keladi:

- istiqbolli bo'lmaydigan loyihalarni aniqlab olish va to'g'ri qaror chiqarish;
- innovatsion g'oyani amaliyotga tatbiq etish jarayonida yanada takomillashtirish;
- yangilikni texnologik xususiyatlariga, boshqaruv va tashkiliy faoliyat yuritish uchun mas'ul bo'lgan tizimlarning xarakteriga moslashtirish imkoniyati bo'ladi.

Masofaviy ta'lim talabalarga noan'anaviy ma'lumot manbalaridan foydalanish imkonini beradi, mustaqil ish samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, turli kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lish va mustahkamlash uchun mutlaqo yangi imkoniyatlarni beradi va o'qituvchilarga "kontseptual va amaliy bilimlardan foydalangan holda o'qitishning tubdan yangi shakllari va usullarini" amalga oshirishga imkon beradi. Masofaviy ta'limning ko'p qirraliligi uni talabaning ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish jarayonida muvaffaqiyatli qo'llash imkonini beradi. Masofaviy ta'lim tizimlarini tahlil qilish jarayonida biz o'quvchining ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirishga yordam beradigan resurslarni aniqladik: ta'lim mazmunini rivojlantirish, uni tizimlashtirish va faol o'qitish usullaridan foydalanish bilan bog'liqligi; talaba ishlayotgan axborot sohasini kengaytirish imkoniyatini yaratish, tashkiliy o'quv jarayoni subyektlarining interaktiv ta'sirini tashkil etish.

Masofaviy ta'lim elektron o'quv-uslubiy majmuaning, shu jumladan kurs dasturi, o'quv-metodik materiallar (ma'ruza kurslari, o'quv qo'llanmalari, taqdimotlar va slaydlar to'plami, lug'at, tizimlashtirilgan adabiyotlar ro'yxati, nazorat diagnostikasi - testlarning mavjudligi) mavjudligini nazarda tutadi. Talabaning axborot-ta'lim muhiti bilan interfaol

hamkorligini ta'minlash maqsadida ijodiy topshiriqlar tizimidan, jumladan, elektron darslikdan foydalangan holda elektron o'quv-uslubiy majmua ishlab chiqish zarur. Har bir talaba uchun o'quv materialining optimal hajmi va mazmunini aniqlash orqali o'quv jarayonini individuallashtirishga imkon beruvchi talabalar uchun metodik qo'llanmalar yaratish kerak. Axborot resursi masofaviy ta'lim talabani axborot sohasini kengaytirish, subyektlarning o'z-o'zini ta'lim qobiliyatini rivojlantirish uchun maqbul shartsharoitlarni yaratish imkonini beradi.

Axborot texnologiyalari elektron nashrlar, Internetning o'quv resurslari – elektron kutubxonalar, axborot va o'quv saytlaridan ijodiy faoliyat uchun asos sifatida foydalanish imkonini beradi. Shunday qilib, elektron ta'lim resurslari masofaviy ta'limda talabani ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirish jarayonini quyidagi xususiyatlar bilan boyitadi:

- axborotning muqobil manbalariga, shu jumladan masofaviy va taqsimlangan ma'lumotlar bazalariga, axborot saytlariga, Internet orqali butun dunyo bo'ylab ko'plab konferensiyalarga kirish;

- elektron konferensiyalarni, shu jumladan real vaqt rejimida kompyuter audio va video konferensiyalarini tashkil etish imkonini beradi, turli universitetlarning o'qituvchilari, talabalari, tadqiqotchilarining turli xil qo'shma ilmiy-tadqiqot ishlari bilan tanishish;

- madaniy, etnik, gumanistik rejaning eng keng ma'lumotlari bilan tanishish asosida o'quvchining ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan masofaviy viktorinalar, olimpiadalar, loyihalarda qatnashish.

ADABIYOTLARNING TAHLILI VA METODOLOGIYA. Masofaviy ta'limda talabani ijodiy faoliyati tajribasini samarali shakllantirish jarayoni bevosita ushbu jarayon subyektlarining o'zaro ta'sirining samaradorligiga bog'liq bo'lib, shu munosabat bilan biz interaktiv ta'limni ta'minlaydigan masofaviy ta'limning tashkiliy resursini ajratamiz. Elektron pochta, chat, forum orqali talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqani tashkil etish zarur. Interfaol vositalar o'qituvchilar va talabalarga ma'lumot almashish, umumiy muammolar bo'yicha hamkorlik qilish, g'oyalar yoki sharhlar joylashtirish, muammolarni hal qilish va muhokamalarda qatnashish va umumiy loyihalar yaratish imkonini beradi. Bunday o'zaro ta'sirda talabalar to'liq ishtirokchi sifatida harakat qiladilar, ularning tajribasi nafaqat tayyor bilim beradigan, balki o'qituvchining tajribasidan kam emas[2].

Shu munosabat bilan interaktiv o'zaro ta'sir vositalari ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish jarayonini takomillashtirish uchun keng istiqbollarni ochadi, xususan:

- o'quvchilar tomonidan yangi ta'lim natijalariga erishishga qaratilgan xayrihoh ijodiy virtual muhitni yaratish;

- talabalar tomonidan bir-biridan uzoqda joylashgan jismoniy foydalanuvchilar o'rtasida masofaviy axborot makonida o'z ta'lim mahsulotlarini taqdim etishi;

- o'quv jarayoni subyektlari o'rtasida ularning masofaviy o'zaro ta'siri strukturasini ishlab chiqqan va ularning kommunikativ faoliyatining ma'lum algoritmini o'rnatgan holda maqsadli muhokama o'tkazish;

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

- o'quvchilarni o'qituvchi va talabalar tomonidan taklif qilingan mavzular bo'yicha mazmunli savollarni to'g'ri berishga, ularga qisqa va to'liq javob berishga o'rgatish;

- masofaviy aloqa ishtirokchilari o'rtasida o'z ijodiy mahsulotini yaratish, muammolarni aniqlash va ularni hal qilish yo'llarini topishda erishgan yutuqlaridan xabardorligi bo'yicha trening aks ettirish[3].

Tajribani nazariy tahlil qilish va masofaviy ta'lim imkoniyatlari doimo rivojlanib borishini ta'kidlash imkonini beradi; tashkiliy shakllar, usullar, o'quv qo'llanmalari, mazmunini tanlash erkinligi bilan o'quvchining ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirishni ta'minlash; individual-shaxsiy ta'lim trayektoriyasini tanlash imkoniyatini beradi.

Amaliyotga joriy etiladigan innovatsiyalar jamiyat tomonidan e'tirof etilishi oqibat natijada vujudga keladi. Bu xususta quyidagi global tendentsiyalarni alohida ko'rsatib o'tamiz:

1. Ta'lim tizimini demokratlashtirish, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida uzluksizlik va uzviylikni ta'minlash, ta'lim muassasalari mustaqilligini mustahkamlash.

2. Aholining barcha qatlamlari uchun ta'lim olishga teng imkoniyatlar yaratish.

3. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning ta'lim oldiga yangi vazifalar qo'yishi. Kasb o'rganish uchun ta'lim olish bilan birga kelajakda ishlash uchun emas, balki o'z shaxsiy ehtiyoji uchun ta'lim olishning rivojlanib borishi va boshqalar.

Ularni amalga oshirishda innovatsion ta'limning quyidagi rivojlanish printsiplari asosida ish olib borilishi lozim.

- Ta'lim va amaliyotning o'zaro uzviy bog'liqligini ta'minlash, kadrlarni amaliyotda ishlashga tayyorlash;

- Ilm-fan yutuqlarini ta'limga keng joriy qilib borish:

- Ta'limning uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash, hayot mobaynida uzluksiz ta'lim;

- Bitiruvchilarning korporativ hamkorligini ta'minlash, ta'lim muassasalari an'alarini shakllantirish va rivojlantirib borish;

- Ta'lim va tarbiyani qo'shib olib borish, yuksak ahloqiy fazilatlarni tarbiyalash;

- Yuksak ma'naviy fazilatlarga ega bo'lgan intelligentsiyani tarbiyalash.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. O'quv yurtlari o'rtasidagi integratsion aloqalar o'rnatish natijasida innovatsion faollikning ahamiyati quyidagicha:

1. Amaliy tadqiqotlarning shakllanish ko'nikmalari, professional yechimlarni qabul qilishga yordam beradi;

2. Bilimlarni samarali o'zlashtirish imkonini yaratadi ;

3. Bilimlarni to'plashdan mustaqil ta'lim olish mexanizmlarini yaratish va tadqiqot faoliyati ko'nikmalariga o'tish jarayoni rivojlantirish imkonini yaratadi;

4. O'quvchilarning qobiliyatlarini shakllantirish va ularda bilim ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

5. Ijodiy va kasbiy bilim qobiliyatini rivojlantiradi;

6. O'quvchilarning sotsial moslashuvi uchun psixologik shart sharoitlar yaratadi.

Milliy ta'lim tizimlari innovatsion faollik ular faoliyatiga ta'sir kursatib kelmoqda, ular bir-biridan taraqqiyot darajasi, maqsad va vazifalari, milliy va tarixiy xususiyatlari, an'analari, aholini qamrab olish darajasiga ko'ra keskin farqlanadi.

Ta'lim tizimini rivojlantirish uchun mamlakatimizning ilmiy-texnik va innovatsion potentsialini barqaror saqlash xamda rivojlantirish zarur. Buning uchun quyidagi yunalishlar bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

- mavjud konunchilikka innovatsion sohadagi faollikni yanada jadallashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratib beradigan yangi takliflar kiritish;
- ilm-fanni rivojlantirish va innovatsiyalarni yaratish uchun, ilm-fan yutuklaridan keng ko'lamda foydalanish asosida innovatsion faoliyat sub'ektlarini va ulardagi faollarni qo'llab-quvvatlash;
- yaratiladigan innovatsion loyihalarni ro'yobga oshirish bilan bog'lik bo'lgan barcha ishlarni muvofiqlashtirib boshqarib boradigan maxsus innovatsion guruhlarini yaratish;
- bilimli, tajribali professional ilmiy-texnik xodimlari, olimlari va mutaxassislaridan tarkib topadigan innovatsion loyixalarni ishlab chiqib ularni ro'yobga oshirish bilan bog'liq chora-tadbirlarni rejalashtiradigan, keyinchalik ushbu faoliyatni boshqarib turadigan ta'lim muassasalariaro Forsayt markazlarini tashkil qilish.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Innovatsiyalarni ta'lim jarayonlariga joriy etilishi natijasida ta'lim sifatiga ta'sir etishi hammaga ma'lum. Innovatsion guruhlarini tashkil etgan ta'lim muassasalari raqobatbardoshlikka ega. Bu esa o'z navbatida turli xil dasturlarni tashkil etishda va integratsiya qilinishida xizmat qiladi. Innovatsion guruhlarini tashkil etgan muassasalar – bu lider, ya'ni bu ta'lim muassasalarining faol ishtirokini bildirib, chet ellik hamkorlar bilan mustahkam tashqi munosabatlarni bildiradi. Bu - muassasalar qulay bo'lib, ya'ni xavfsizlikni ta'minlaydi va to'liq infratuzilma bilan (meditsina, sport, mediateka, psixolog – pedagogik kuzatuv, informatsion markaz va boshqalar) ajralib turadi. Bunda muassasalar innovatsion faoliyatni ham samarali yuritadi, ya'ni yangi tashkillashtirilgan texnologiyalarni, yangi dasturlarni va uslublarni ishlab chiqadi.

Masofaviy ta'lim potentsialining muhim tarkibiy qismi o'qituvchi va talabaning birgalikda yaratishga asoslangan interaktiv o'zaro ta'siridir. Talabalar bilan birgalikda amaliy va nazariy muammolarni hal qilishga qaratilgan va yaxlit ta'lim jarayonida o'zaro ta'sir subyektlari rivojlanishining o'zaro bog'liqligini taklif qiladigan qo'shma (jamoaviy, guruh ish shakllari sharoitida) ijodiy faoliyat olib boorish zarur. Birgalikda ijod qilish mohiyatan kommunikativ jarayon bo'lib, u birgalikda ijodkorlikni rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladi. Talabaning ijodiy faoliyati tajribasini shakllantirishga qaratilgan birgalikda ijod belgilarini aniqlashni zarur deb bilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PF-6108-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.11.2020 yildagi PQ-4884-son qarori

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

3. Barakayevich, Q. S., & Baxtiyorovna, A. S. (2021). Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta'lim muhitini yaratish. Integration of science, education and practice. scientific-methodical journal, 1(02), 132-137.
4. Elmurzaeva, N. K., & Qorayev, S. B. (2021). Pedagogical Requirements for the Organization of the Educational Process in Specialized State Educational Institutions. Psychology and Education Journal, 58(1), 1078-1084.
5. Qorayev, S. B., & Joldasov, I. S. (2021). Kasb-hunar maktablari faoliyatini amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish orqali takomillashtirish masalalari. Academic research in educational sciences, 2(2).

